

## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR TAMONIDAN YANGI AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI TA‘LIM TIZIMIGA JORIY ETILISHI

**Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich**

Qo‘qon davlat pedagogika instituti Milliy g‘oya, ma‘naviyat  
asoslari va huquq ta‘limi kafedrası, v.b.dotsenti, p.f.d (PhD)

### ANNOTATSIYA

Maqolada kommunikatsiya tizimidagi o‘zgarishlar jamiyatning barcha sohalari tizimini tubdan o‘zgartirishi va “Axborotlashgan jamiyat”ning muhim belgisi-axborotlarni tez qabul qilib olish, tahlil qilish, saqlash va iste‘molchilarga tez yetkazish va jamiyatda taraqqiyot fan yutuqlarini ishlab chiqarishga maqsadli va tez joriy qilish xususida fikr yuritiladi. Shuningdek, ma‘naviy-axloqiy tarbiya ishlari tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etish jarayonlari xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** “Axborotlashgan jamiyat”, ta‘lim, kommunikatsiya, “internet kafe”, “video bar”, maktab ta‘limini, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini.

Tsivilizatsiyaviy taraqqiyotda ta‘lim tizimining axborotlar bilan ta‘minlanish darajasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Biz istaymizmi yo‘qmi, madaniy dunyoda “Axborotlashgan jamiyat” shakllanmoqda. “Axborotlashgan jamiyat”da inson bilimi rivojlanishning asosiy manbai bo‘lib qoladi. Ishlab chiqarishning yuksak rivojlanishi, zamonaviy makroelektronika va kompyuter texnikasiga asoslanadi. Bular ommaviy axborotlarni vujudga keltiradi, axborotni mujassamlashtiradi va qayta tahlil qiladi. Kommunikatsiya tizimidagi o‘zgarishlar jamiyatning barcha sohalari tizimini tubdan o‘zgartirib yuboradi. “Axborotlashgan jamiyat”ning muhim belgisi-axborotlarni tez qabul qilib olish, tahlil qilish, saqlash va iste‘molchilarga tez yetkazishdir. Bunday jamiyatda taraqqiyot fan yutuqlarini ishlab chiqarishga maqsadli va tez joriy qilish asosida boradi. Bugun dunyoda axborotlarning globallashuvi jarayoni ketayotgan bir sharoitda, bizda ta‘lim sohasida “axborotlar tanqisligi” sezilmoqda. “Axborot tanqisligi” bor joyda kadrlar tayyorlash milliy dasturimizda belgilab qo‘yilgan barkamol avlodni tarbiyalab bo‘lmaydi. Ta‘lim tizimining axborotlar bilan ta‘minlanish darajasi o‘qituvchining ham, o‘quvchining ham saviyasiga, dunyoqarashiga ta‘sir qilishi shubhasiz. Bu borada respublikamizda ko‘p ishlar qilindi va qilinmoqda. Axborotlarning yangi tizimi ta‘lim sohasiga kirib keldi va bir qator imkoniyatlarni vujudga keltirdi. Jumladan, elektron pochta, internet, elektron kitob, multimediya, masofali ta‘lim, videokonferentsiya va hokazo. Bugun

hamma joyda “internet kafe”, “video bar”lar ishlab turibdi. Bular yaxshi, ammo, mafkuraviy immunitet muammosi paydo bo‘ldi. Xo‘sh, axborotlar, umuman mafkuraviy jarayonlar globallashuvi yuz berayotgan davrda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga samarali ta’sir ko‘rsatuvchi biror vosita yoki omil bormi? Bu masalaning bir tomoni xolos. Boshqa tomoni esa, o‘quvchilarning kitob o‘qimay qo‘yganligidir. Kitob o‘qish masalasida barchaga bir xil umumiy fikr bildirib bo‘lmaydi. Chunki, kitob o‘qishni, mutoala qilishni “xobbi” qilib olganlar ham bor, kitob o‘qisa uyqusi keladiganlar ham bor.

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi va mavjud qonunlar shuni taqozo qiladi. Demak-ki, unday o‘qituvchida axborot olish uchun nafaqat vaqt, balki fizik quvvat yo‘q.

Ayniqsa, tajribali, yoshi ulug‘ o‘qituvchilar oldida axborot olishning “til bareri” ham mavjud. Mana shu o‘qituvchilarda yo‘q narsalarning barchasi talaba-yoshlarda bor. Talabalar axborotlarni tez o‘zlashtiradi, ammo ularda axborotlarga nisbatan mafkuraviy immunitet yo‘q. Yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirmaguncha kamolotga erisha olmaydi, bilaks begona oqimlarga ergashib ketaveradi va jamiyatda imonsizlik kasali (mafkurasizlik mafkurasi) ildiz ota boshlaydi. Demak, axborotlar bilan ta’minlanish masalasiga mafkuraviy jihatdan yondashuv zarur.

Bizning nazarimizda, masalaga mafkuraviy jihatdan yondashuvning eng ishonchli ikki yo‘li bor: birinchisi, kitob mutoalasi. Axborotlashgan jamiyatda darslik, o‘quv qo‘llanmalari, qo‘shimcha adabiyotlar baribir o‘z mavqeini saqlab qoladi. Kitobni sevmagan, kitob bilan mustaqil ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lmagan mutaxassis – zamonaviy mutaxassis emas. “Kitob — oftob”, deydi dono xalqimiz. Kitob — qalblarga nur sochadi, ilm-qalblarga yo‘l ochadi. “Kitob barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir”, - deb ta’kidlagan edi Amir Temur. Kitob — bu bilim, bilish. Kompyuter — bu axborot. Bugun biz axborotlashgan o‘quv qo‘llanmalarini yaratdik. Endigi vazifa chuqur tahlilga asoslangan, nazariy xulosalarni beradigan yangi avlod darsliklarini yaratishdir.

Bu ishni “hay-hay”lab, “kompaniyabozlik” bilan amalga oshirib bo‘lmaydi. Buning uchun respublikadagi intellektual kuchlardan iborat metodologik kengash tuzilib, davlat talabi va nazorati ostida darslik yaratilguncha ishlash lozim.

Ikkinchidan, jonli ma’ruza-dars. Ta’lim sohasida hech bir texnika va texnologiya o‘qituvchining o‘rmini bosa olmaydi. Chunki, texnika inson tafakkurining mahsuli. O‘qituvchi uni oqilona boshqara olsagina samara berishi mumkin. Chunki, u jonli mavjudot, mushohada qiladi, fikrlaydi, favqulodda mustaqil yechim qabul qila oladi, shuning uchun uni hech narsa bilan almashtirib bo‘lmaydi. O‘qituvchining jonli

ma'ruzasi ilmiy tahlilga qurilgan bo'ladi va har qanday favqulotda holatlarda ham mustaqil nazariy xulosalar bera oladi. Auditoriyada o'qituvchining "Men"i kompyuterning "Men"idan ustundir. Shunday ekan, o'qituvchini axborot bilan ta'minlash masalasini hal qilmoq kerak. O'qituvchi bugun faqat radio va televidenie materiallariga suyanib qolgan. Ular maxsus bilim bera olmaydi.

Oliy ta'lim muassasalari ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlari jarayonlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish uchun bosqichma-bosqich chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ta'lim va tarbiya jarayonlari samaradorligiga axborot texnologiyasini tanlanishi va ularning integratsiyasi ta'sirini baholashni ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarur. Talaba va pedagoglarning ijobiy motivatsiyasi axborot texnologiyalarini samarali joriy etish natijaviyligini aniqlashtirishda asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarining aniq maqsadi va mazmunidan kelib chiqishi, ta'limning shaxsni rivojlantiruvchi funksiyasini amalga oshiruvchi, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat bilan talabalar qamrovini oshirish imkoniyatini ta'minlovchi, tadbirlarning ko'rgazmaliligini oshiruvchi vosita sifatida ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Ta'lim to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 1997 yil 29 avgust . Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, 1997. – B. 20-29.
2. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahriri) O'zbekiston Respublikasining ommaviy axborot vositalari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari. – T.: "O'zbekiston", 2007. – B.80.